

O'SMIR YOSHLAR BILAN ISHLASHDA GURUH RAHBARINING O'RNI

Kenjayeva Gulsora Norqo'zi qizi

Sayhunobod tumani 2- sonli kasb- hunar maktabi fizika fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smirlik, o'smir yoshlarda uchraydigan muammolar hamda guruh rahbari haqida ma'lumotlar berilgan. O'smir yoshlar bilan ishlashda guruh rahbarining o'rni yoritib berilgan. Ota- onalarga o'smir yoshidagi farzandi bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqidagi foydali ma'lumotlar o'rin olgan.*

Kalit so'zlari: *guruh rahbari, faol, ijodkor shaxs, fazilat, qiziqish uyg'otish, o'smir, o'quvchilar jamoasi, sabr- toqat, dadillik,*

Guruh rahbari deganda - o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilmi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog (sinf rahbari) tushuniladi.

Guruh rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va guruh rahbari bir- birini tushuna olish va guruh rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishdir.

Guruh rahbarining eng muhim fazilati – odamlarning tezda tilini topa olishi, ko'pchilikni eshita bilish, sabrlilik, dilkashlik bo'lib, bu undagi muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki unga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to'g'ri keladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda o'quv- tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yaratish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo'luvchi guruh rahbarining insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Guruh rahbari uchun juda muhim xislat – insonparvarlik, ya'ni o'sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabat qilish lozim. Insoniy munosabatlarda o'quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning fikriga quloq solmoq, uning o'quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlikdan iboratdir.

Guruh rahbari doimo faol, ijodkor shaxs bo'lishi kerak. U o'quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi hamdir. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish, ularni o'zi bilan yetaklash faqat yuksak irodali insonning qo'lidan keladi. Auditoriya, o'quvchilar jamoasiga pedagogik rahbarlik qilishi guruh rahbaridan topqir, zehni o'tkir, har qanday vaziyatni mustaqil yechishga doim tayyor bo'lishligini talab qiladi. Unga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri – sabr- toqat va dadillikdir. O'qituvchining birdan sarosimaga tushgani, o'z nochorligini o'quvchilar sezmasligi lozim. Shuni hamisha esda tutish kerakki, guruh rahbari o'z harakati va axloqini nazorat qilish, hech qachon arzimagan narsalarga asabiylashmasligi kerak.

O'smirlik yillari – ota- onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota- onalar ham bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari kerak. Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsa- da, moddiy va jismoniy jihatdan ota- onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar asosan shundan kelib chiqadi. Bola o'smirligida

mustaqil qaror qabul qilishni o'rganmasa, katta hayotda ham uni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi.

O'smir bolalar uchun o'zidan boshqa hamma nohaq. Agar ota- onasi tomonidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanayam qat'iylashadi. Bunday vaziyatda ota- onalar uning fikrini hurmat qilishlarini sezdirishlari va shuning barobarida o'ylagan qarorlarining natijasi haqida maslahatlashishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga savollar berish orqali uni o'ylashga undab, to'g'ri qaror chiqarish imkoniyatini berish lozim.

Har bir ota- ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ular qiyinchiliklarga uchrashi oson va zaif bo'ladi.

O'smir bola do'stga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun avvalo, biz ota- onalar va pedagoglar bolaning atrofidagi do'stlari haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. O'smir noqobil do'st tanlaganda o'quvchini uyga qamash yoki kim bilandir do'stlashishini taqiqlash unda yanada katta qarshilik uyg'otadi. Farzandi noqobil do'st tanlagan ota- ona unga shunday boshqa bir yaxshi jamoani yoki do'stni taklif qilishi mumkin. Masalan, bolaning birga o'ynaydigan do'stlarini ota- onasi yoqtirmaydi. Uni o'sha noqobil boladan ayirish uchun, farzandingiz u bilan vaqt o'tkazadigan paytni mo'ljallab boshqa bir davrani – sport to'garagi, qo'shimcha mashg'ulot kabilarni taklif qilishi kerak. Bunda majburlash yaramaydi, tanlash imkoniyatini berish kerak – shunda bola o'zi tanlov qilganday his qilishiga erishish mumkin.

Har doim tarbiyada xotirjam ish tutish kerak, shoshilmaslik kerak. Chunki bola hali o'zini qidiriyapti – unga o'zligini topishiga imkon bergan ma'qul. Agar maktabdagi do'sti ota- onaga yoqmasa, darsdan keyin maktabda ko'p ham ushlanib qolmasligiga erishish kerak. Ammo o'smir yoshda bolaning maktabini o'zgartirish yaxshi emas, o'smirlar yangi muhitga moslashguncha juda qiynaladi. Bizning kasb- hunar maktabimizga turli maktablardan o'smir yoshidagi yigit- qizlar kasb- hunar o'rganish uchun kelishadi va yangi muhitga moslashguncha ularda qiyinchiliklar va o'zgarishlar bo'ladi, ba'zi ota- onalar bunday holatlardan havotirlanishadi. Biz pedagoglar esa bunday holatlarda ota- onalarga to'g'ri maslahatlar berib boramiz.

Ota- onalarga farzandiga to'g'ri motivatsiya berishni o'rgatishimiz kerak

Ota- ona hamma narsani muhayyo qilishi bolada hech narsaga intilmaslikni keltirib chiqaradi. Barcha muammolarini ota- onasi hal qilib berishi – kelajakda uning hayotini ham ular boshqarishiga zamin yaratadi. Oqibatda ular kelgusida boshqalarning xohishlari bilan yashashga o'rganib qolib, qachondir afsuslanishadi. Shuning uchun o'smirlarda kelajak haqida o'ylash, to'g'ri qaror qabul qilish uchun imkon va tushuncha berishda yordam ko'rsatish kerak. «Sen kelajakda nima qilmoqchisan? Kim bo'lmoqchisan?» kabi savollar bolani o'ylashga majbur qiladi. Birdaniga javob bermasligi mumkin, ammo vaqt o'tib bu haqda o'ylab ko'radi. Ularga o'zi yoqtirgan biror mashhur shaxslarni namuna qilib ko'rsatish ham unga motivatsiya berishi mumkin. Aslida ota- ona bolaga hamma narsani

yaratib bermasligi, u nimagadir intilishi, orzu qilishi uchun imkon qoldirishi kerak. Nimagadir o'z mehnati bilan erishsa, u uchun qadrlı bo'ladi.

Yoshligida yetarlicha mehr ko'rmagan bolalar o'smirlikda jinoyat qilishga ko'proq moyil bo'lishadi. Ular buni xohlashmasa ham, o'zlari sezmagan holda ota-onalari, atrofdagilar va umuman dunyo bilan o'chakishib jinoyat qiladi. Bunday holatlarda psixologlar bilan ishlash yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatda ota- onalar bolaga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishlari to'g'ri bo'lmaydi, chunki boladagi bu yaralar ularning xatosi tufayli yuzaga kelgan.

Ota- ona farzandi oldida uning o'qituvchisi haqida hurmat bilan gapirishi lozim. Bu bilan bolada ustoziga nisbatan hurmat paydo bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nizoli vaziyat kelib chiqqanda bolaning his- tuyg'ularini ham eshitish, uni doim tushunishlarini anglatish yaxshi samara beradi. So'nggi paytlarda shunday vaziyat yuzaga kelganda borib o'qituvchini haqoratlab hatto, urib kelayotgan ota- onalar haqida ham ko'p eshitmoqdamiz. Bunda ular yutqazadi, bu holat oqibatida guruppadoshlarida o'quvchiga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi, o'quvchi bundan keyin ham o'z munosabatlarini shunday hal qilishga o'rganishi mumkin. Bu bilan ular farzandiga juda yomon namuna ko'rsatishadi. Shunday tushunmovchilik holati sodir bo'lganda o'qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning guruhdagi obro'sini tiklash, o'ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun ota- ona farzandini o'sha o'qituvchiga qo'shimcha darsga yoki to'garakka berishi ham yaxshi natija ko'rsatishi mumkin. Bu orqali bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon topish mumkinligini anglaydi.

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu guruh rahbarining talabchanligidir. Dastlab talabni u o'ziga qo'yishi kerak, chunki o'zida bo'lmaganini o'zganidan talab qila olmaydi. Talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo'lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda yuz berib turadigan keskinliklarni bartaraf etish uchun tarbiyachiga hazil- mutoyiba tuyg'usi yordam beradi. Uning ko'lamida tayyor hazil ijobiy emosional holat yaratishga imkon berib, o'quvchilarni o'ziga jalb qildiradi.

Shaxs axloqini harakterlaydigan belgilardan biri – mas'uliyatdir. Guruh rahbarining mas'uliyati - pedagogning faoliyati va ta'lim- tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. U o'quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga u o'quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o'z vaqtida payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlarni rivojlantirib borishi darkor.

Hulosa qilib aytganda, pedagogik odobga ega bo'lgan guruh rahbari o'quvchilar orasida obro' qozonadi. Ustoz qanchalik obro' qozonsa, ta'lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi va aksincha, pedagogning sha'ni qanchalik past bo'lsa, uning ta'siri shuncha bo'sh va o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayoni ham shuncha zaif

bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan fazilatlar guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishda va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi.

O'qituvchilarning ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalari: oilani birlashtirish, ota- onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, oilada bolaga qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, oilani har tomonlama, tizimli ravishda o'rganish va bolaning oilaviy tarbiyasini rivojlantirish. O'qituvchi xohlasa ham, xohlamasa ham, ota- onalar bilan aloqa qilishi kerak.

Oilani o'rganish paytida quyidagi ma'lumotlar birinchi navbatda qiziqish uyg'otadi: ota- onalar va boshqa oila a'zolari haqida umumiy ma'lumot. Uy sharoitlari, moddiy ta'minot. Maktab ishlariga qiziqishlar. Bolalar haqida umumiy ma'lumot. Yoshi, qiziqishlari, ma'lumot darajasi. Oilaning ta'lim imkoniyatlari. Oilada mikroiklim. Oilaviy an'analar.

Bizning kasb- hunar maktabimizdagi eng ko'p qo'llaniladigan ota- onalar bilan birgalikda ishlash usullari va shakllari: oilaviy o'rganish usullari (kuzatish; suhbat; oilaviy tashriflar, testlar; anketalar; o'quvchilarning fikrlarini tahlil qilish, mahorat darslari, ota-onalarning tematik soatlari, majlislar va boshqalar); xabardor qilish, tajriba almashish, ota-onalarning individual faoliyati, ota- onalarning o'quvchilar darslariga o'zaro qatnashishi va maktab bilan hamkorlik qilish.

Guruh rahbari kasb- hunar maktabidagi eng universal pedagog hisoblanib u bajaradigan mehnatning o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmasligi, shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis va ta'nasiz shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlay olishi kerak. Guruh rahbari pedagoglar, ota- onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda o'zining pozitsiyasini aniq ta'minlay olishi kerak. Bu esa donolikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Volikova T.V. O'qituvchi va oila. - Moskva, 1987 yil.
2. Geiko V. A. Bolaning maktab muvaffaqiyatlarini rivojlantirishda oilaning o'rni. Boshlang'ich maktab. - 1999 yil, № 3. - S. 59 - 61.
3. Grebenschikov I.V. Maktab va oila. - Moskva, 1985 yil.
4. Ziyomuxammedov B., Abdullayeva Sh. «Pedagogika». T., 2000.
5. Mo'min Sekman Dr. Bahar Erishning: "Bolalar muvaffaqiyatga qanday erishadilar" "Yangi asr avlodi", 2022 yil.
6. O'.A. Ashirova. Bolalarni aqliy rivojlantirishda erta ta'limning ahamiyati. Journal of new century innovations. 2022.
7. www.ppf.uni.udm.ru

Усманов, Б. С., Махмудов, Н. И., Исмаилов, Ж. Т., & Дадабаев, Х. Р. (2009). Тактика лечения больных с повреждениями магистральных сосудов нижних конечностей. *Вестник экстренной медицины*, (3), 49-51.